

Qurbonova Go'zal Rajab qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

guzal.kurbanova@icloud.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GENDER TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tolerantlikni shakllantirishda bir-birini to'ldirib turuvchi omillar, gender tolerantlikning tarkibiy qismlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida gender tolerantligini shakllantirishda tamoyillarning ahamiyati batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: gender tolerantlik, komponentlar, identifikatsiya, ta'lim-tarbiya, do'stlik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarkibiy qismlar, tamoyillar.

МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье подробно описаны взаимодополняющие факторы формирования гендерной толерантности у детей дошкольного возраста, компоненты гендерной толерантности и значение принципов формирования гендерной толерантности в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: гендерная толерантность, компоненты, идентификация, воспитание, дружба, организация дошкольного образования, компоненты, принципы.

MECHANISM OF FORMATION OF GENDER TOLERANCE IN PRESCHOOL CHILDREN

Abstract: This article describes in detail the complementary factors in the formation of gender tolerance in preschool children, the components of gender tolerance and the importance of principles in the formation of gender tolerance in preschool educational institutions.

Key words: gender tolerance, components, identification, education, friendship, organization of preschool education, components, principles.

Kirish. Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim sohasi integrativ yondashuvlar asosida bolalarni psixologik, axloqiy-estetik, jismoniy rivojlantirish, adaptiv ijtimoiylashuv hamda gender ta'lim-tarbiyani samarali joriy etish modellarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tolerantlikni shakllantirish, ularda gender o'ziga xosliklarni to'g'ri rivojlantirish, gender konfliktlarning oldini olish, yosh davri xususiyatlarini hisobga olgan holda gender bag'rikenglikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG—Sustainable Development Goals)da maktabgacha yoshdagi bolalarda gender tolerantlik va gender tenglik kontekstida jinslararo o'zaro faol muloqotga kirishishlari uchun maxsus ta'lim-tarbiya berish zaruriyati alohida belgilab berilgan.

“Dunyo insoniyatning intellektual va ma'naviy hamjihatligiga tayanishi lozim” deb uqtiriladi, “Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi”da. Shuningdek, har bir insonning “Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi” da e'tirof etilgan “fikir, e'tiqod, din” erkinligini ta'minlash lozimligi ta'kidlanadi. Dunyo mamlakatlaridagi ta'lim tizimi “Barcha odamlar, irqar va diniy guruhlar orasida o'zaro hamjihatlik, sabr-bardoshli munosabat va do'stlikni” tarbiyalashi zarur ekanligi mazkur hujjatda belgilangan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Gender tanish masalasi bo'yicha mavjud holatni tahlil etish jarayonida yosh va psixologik xususiyatlari, o'ziga xosliklari inobatga olish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda gender tanish (identifikatsiya) masalasiga e'tibor qaratish lozim, bunda N.K.Radining fikri bilan belgilangan identifikatsiya turlariga tayanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. N.K. Radina identifikatsiyaning ikki darajasini ajratadi:

1) tashqi - tashqi atributlar orqali - kiyim uslubi, xulq-atvori va boshqalar.

2) ichki - ayol va erkak o'rtasidagi tub mazmunli farqqa ko'ra: jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bo'lgan ichki munosabat, jamiyatdagi normalar hamda ta'sirlarga bo'ysunishga kamroq moyillik.

Gender tolerantligi bo'yicha identifikatsiya darajalari

Darajalar	Identifikatsiya belgilari
tashqi - tashqi atributlar orqali	kiyim uslubi, xulq-atvori va boshqalar
ichki - ayol va erkak o'rtasidagi tub mazmunli farqqa ko'ra:	jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga bo'lgan ichki munosabat, jamiyatdagi normalar hamda ta'sirlarga bo'ysunishga kamroq moyillik

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolada gender tolerantligining shakllanishiga uni o'rab turgan butun borliq, muhit ta'sir qiladi, mazkur omillar ham hisobga olinadi:

- ota-onalar o'rtasidagi gender munosabatlari;
- tarbiyachilar o'rtasidagi genderga tegishli suhbatlar;
- tengdoshlar bilan muloqotdagi gender muhiti;
- uydagi gender muhit va muloqot;
- maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bog'chasidagi tarbiyachi hamda tengdoshlar orasidagi gender munosabatlari;
- ommaviy axborot vositalarida taqdim etilayotgan materiallar (masalan, kitoblar, bosma materiallar, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar adabiyoti, bo'yash uchun ertaklar, qo'shiqlar, aloqa kommunikativ vositalar - kompyuterlar, gadjetlar va boshqalar).

Gender tolerantligini shakllantirish omillari



Gender tolerantligi umumiy holda bir-birini to'ldirib turuvchi omillar sifatida namoyon bo'lsa-da, alohida ajratib ko'rsatilgan holda mavhum tushunchalar kabi tushuniladi. Shu sababli, gender tolerantlikning tarkibiy qismlarini aniqlashtirish lozim.

Gender tolerantlikning tarkibiy qismlari

Komponentlar	Namoyon bo'lish shakllari
Kognitiv komponent	-bolaning o'zi va qarshi jins vakillarining tashqi ko'rinish, xulq-atvor, funksional xususiyatlar haqidagi g'oyalar; -xatti-harakatlar usullari va turli xil jins vakillari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida; -bolaning o'zi va qarama-qarshi jins vakillarining shaxsiyatining mazmuni, o'z gender o'ziga xosliklari to'g'risida [175]; -turli jinsiy mansublikdagi tengdoshlarining kamchiliklariga javob berish usullari to'g'risida; -bolaning o'z jinsiga mansub bo'lgan va qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlariga e'tibor berishi, yordam berishi va hamdardlik ko'rsatishi;

	-qarama-qarshi jinsdagi tengdoshining o'ziga tortuvchi, jozibali, yoqimli fazilatlariga haqida; -bolani ma'lum bir jins vakili sifatida rivojlantirish istiqbollari to'g'risida.
Baholash mezonlari	-anglashning hajmi; -chuqur anglash; -idrok etishda maqbul stereotiplarning yetishmasligi; -axloqiy tanlov holatlarini baholashda variativlikning yo'qligi
Hissiy komponent	-"empatiya, hamdardlik, bolaning o'z jinsiga mansub va qarshi jinsdagi tengdoshlariga yordam berish istagi; -turli jinsdagi insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir aks etgan vaziyatlariga qiziqish; -qarama-qarshi jinsdagi tengdoshi bilan o'zaro qiziqishlari hamda qarshi jins vakiliga ehtiyoj sezish".
Hissiy komponentni baholash mezonlari	-barqarorlik; -zo'ravonlik; -variativliklikning yetishmasligi; -bolada aks etayotgan hissiyotlarning inson ruhiy va gender holatiga mosligini farqlash; -ijobiy va salbiy tanlov nisbati; -umumiy va o'zaro tanlovlarning mavjudligi.
Xulq-atvor komponenti	-bolaning qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda (real vaziyatlarda) yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash usullari; -maktabgacha yoshdagi bolaning qarshi jinsdagi tengdoshi bilan o'zaro munosabatlar jarayonida hissiy, xulq-atvor va nutqdagi reaksiyalari; -maktabgacha yoshdagi bolaning o'zi va boshqa jinsdagi tengdoshining hissiy holatlariga nisbatan reaksiyasi
Xulq-atvor komponentini baholash mezonlari	-mustaqillik; -tashabbuskorlik; -yetarlicha gender belgilariga bog'liq vaziyatlarning yetarlicha mavjudligi; -xatti-harakatlarning yo'nalganligi (o'ziga nisbatan, o'zi bilan bir jinsdagi bolalarga, qarshi jinsga mansub bolalarga nisbatan yo'nalgan, vaziyatga qarab yo'nalgan); -o'zaro ta'sir xarakteristikasi (hissiy jihatdan ziddiyatli, ijobiy, loqaydlik).

Mazkur ishlab chiqilgan komponentlar hamda gender identifikatsiya sifatlariga ko'ra, dastlab tarbiyalanuvchilarning holatlari tahlil qilinadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar gender tolerantlikni shakllantirishda "o'yin elementlari bilan boyitilgan mashg'ulot-ertak"larga ko'proq muhtojlik sezadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida gender tolerantligini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq:

• **umuminsoniy va milliy qadriyatlarga moslik.** Bu tamoyil asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning barcha xatti-harakatlari va his-tuyg'ularini gender tolerantligining insoniyat uchun umumiy bo'lgan hamda milliy qadriyatlar tizimida qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar doirasida baholay olishiga erishish lozim.

• **ijtimoiy-madaniy me'yorlarga muvofiqlik.** Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisida gender ijtimoiy-madaniy me'yorlarini qabul qilingan ijtimoiy normalar doirasida anglash, ularni gender tolerantlik xulq-atvor modelining namunaviy negizi sifatida qo'llay olish; gender munosabatlarida o'z his-tuyg'ulari, emotsiyalarini tushunish, ularni gender rollar nazariyalariga mos ravishda ijtimoiy mos shaklda ifodalay olish; o'zining gender individualligi va qadr-qimmatini, shu qatorda, boshqa gender o'ziga xosliklarga ega bo'lgan insonlar shaxsining qadr-qimmatini anglash; "gender

munosabatlarida yuzaga keladigan odatiy muammoli vaziyatlarni anglay olish, muammoni hal etishning konstruktiv yechimlarini izlash; umumijtimoiy va shaxsiy tajribani umumlashtira olish qobiliyatlarini shakllantirish kerak”.

• **jinsiy rivojlanishga muvofiqlik.** Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning aynan belgilangan yoshdagi (masalan, maktabgacha ta’lim tashkiloti katta guruhi tarbiyalanuvchisi 5-6 yosh) jinsiy rivojlanish o’ziga xosliklari, shuningdek, kelgusidagi rivojlanish bosqichlarini anglashi, shu rivojlanish xarakteriga muvofiq o’z xatti-harakatlari, ijtimoiy me’yorlarga mosligi, xulq-atvor modeliga muvofiqligini ta’minlash nazarda tutiladi.

• **milliy-axloq g’oyalarga muvofiqlik.** Mazkur tamoyil asosida o’zbek milliy-axloqiy g’oyalardan asosiylari hisoblangan Vatanga muhabbat hamda vatanparvarlikni shakllantirish, milliy o’zligini anglash, o’z xulqi va faoliyatini gender identifikatsiya nuqtayi nazaridan nazorat qilish, o’z-o’zini gender rollarga muvofiq baholashga o’rgatish, kattalar va tengdoshlari bilan gender munosabatlarda o’zaro hurmat va gender nazariyasi doirasida qabul qilingan axloq qoidalariga rioya qilish shakllantiriladi.

• **jinsiy rollarga taalluqlilik.** Insoniyatning asrlar davomida rivojlanib kelgan jinsiy rollar nazariyalarining gender tolerantligiga taalluqli jinsiy rollar nazariyalari asosida erkak va ayol, ota va ona, buvi va buva, opa-singil, aka-uka kabi jinsiy farqlanuvchi gender rollarga taalluqli hatti-harakat va xulq-atvorni qaror toptirish, bunda gender tengsizligi va shafqatsizlikka yo’l qo’ymaslik lozim.

• **jamiyatdagi stereotiplarga muvofiqlik.** Jamiyatda qabul qilingan gender stereotiplarini gender tolerantlik nuqtayi nazaridan adolatli o’zgartirish, bunda jinslarga nisbatan adolatsizlik, bir yoqlamalik, shaxsiy va demokratik, ijtimoiy huquq-erkinliklarga dahl qilinishiga, diskriminatsiya va kamsitishga yo’l qo’ymaslik kabilarni tarkib toptirish lozim.

• **yo’naltirilganlik.** “Jinsiy o’ziga xosliklardan kelib chiqqan holda jamiyat va insoniyatni rivojlantirishga qaratilgan hatti-harakatlar, axloqiy, ma’naviy, ruhiy, jinsiy, qadriyatli yo’naltirilganlik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bunda jinsiy deviatsiyaga yo’l qo’ymaslik”.

• **adaptivlik.** Jinsiy tanlanishga muvofiq gender tolerantligi asosida jamiyat va atrofdagi muhitga moslashuvchanlik, egiluvchanlik, muammo va ziddiyat, konfliktlarga real baho berishni shakllantirish

• **kommunikativlik.** Jinsiy o’ziga xoslik va shaxsiy individuallik asosida aloqa bog’lash, o’zi bilan bir jinsdagi va boshqa jins vakillari bilan munosabatlarni real, adolatli, faol o’rnata olish, qarshi jins vakillari bilan munosabatlarda adolatsizlik va kamsitishga, salbiy stereotiplar doirasida shakllanishi mumkin bo’lgan dogmatik yondashuvlarga yo’l qo’ymaslik.

• **gender mutanosibli.** Gender rollarga mos ravishda tolerant munosabatni shakllantirish, kelgusida jamiyat va insoniyat rivojiga hissa qo’shuvchi ideal gender xatti-harakatlar, his-tuyg’ular hamda axloq kompleksini yaratish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda gender tolerantlikini shakllantirish jarayonida pedagoglarning o’zidan tolerant tafakkur egasi bo’lishi qat’iy talab etiladi, chunki o’rgatuvchining o’zi tolerant tafakkur egasi bo’lmasa, u hech vaqt boshqalarni tolerantlik, ya’ni sabr va bardoshli, madaniyatli, e’zozli va o’zgalar fikrini, ular fikriga qo’shilmagan holda, qadrlash xususiyatlariga o’rgatib bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni, O’RQ-562-son 02.09.2019.

2. A’zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do’stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko’nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: avtoref. dis.kand. ped. nauk: 13.00.08 / UzPFITL. – Toshkent, 2020 – 18 s

3. Qo’shaqova G. Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirish yo’llari. Jizzax, 2010-yil, 53-bet.

4. www.ru.wikipedia.org/wiki/Термафродитизм

5. www.ru.wikipedia.org/wiki/